Ключевые слова: профессиональная ориентация, педагогическая профессия, профессиональная идентификация, профессиональная мотивация, профессиональная установка, профессиональные роли, педагогическая компетентность, самосознание, культурно-исторический подход, этнопсихологические факторы, педагогические ценности, социально-психологические представления, профессионализм, профессиональное становление.

KIRISH


XXI asrda ta'lim tizimining globallashuvi, inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi hamda pedagog kasbining strategik ahamiyat kasb etishi yoshlarni pedagogik faoliyatga yo'naltirish masalasini dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylantirdi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta'lim sifati, avvalo, pedagog shax-



sining kasbiy kompetentligi, ijtimoiy mas'uliyati va kasbiy identifikatsiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois pedagogik kasbga yo'naltirish jarayonining psixologik va metodologik asoslarini chuqur o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kasb tanlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muayyan izchillikda bo'lsa-da, bu sohadagi qizg'in izlanishlar inson resurslarini boshqarish, ya'ni HR-menejment boshlanishi davriga to'g'ri keladi. Kasb tanlash sohasidagi mavjud tadqiqotlar, shu davrgacha quyidagi asosiy 9 yo'nalishda rivojlanib kelmoqda:

- kasbiy moyillik;
- kasbiy qiziqishlar;
- kasbiy ustanovkalar;
- kasbiy yo'nalganlik;
- kasbiy identifikatsiya;
- kasbiy shakllanish;
- kasbiy moslashuv;
- kasbiy kompetentlik;
- kasbiy muvaffaqiyat va (yoki) professionalism.



1-rasm: Kasb tanlash sohasidagi mavjud tadqiqotlar klasterlanishi

Tadqiqotimizning empirik qismini tashkillashtirishda va pedagogik kasbga yo'naltirish bo'yicha izlanishlarda, iloji boricha, ikki qutb bo'yicha klassifikatsiya qilishdan qochishga, imkon qadar "kasb tanlash motivatsiyasi" va "kasb tanlash jarayoni" qutblarining o'rta mezonlarini qayd etishga intildik. Ma'lumki, kasb masalasini tushunishdagi "kasb tanlash motivatsiyasi" va "kasb tanlash jarayoni" qutblaridan chetlanish va oraliq - "kasbiy yo'naltirish", ya'ni ikkala vaziyatga ham taalluqli holatlarga asoslanish, "motivatsiya" va "jarayon" tabiatini tushunishdagi tub burilishlardan biri edi. Bu borada, shaxsning kasbiy yo'nalganlik (shu jumladan, kasbiy yo'naltirish) darajasini tushuntiruvchi ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotimizning markaziy masalasidan biri bo'lmish kasbiy identifikatsiya jarayoni, ushbu jamiyatdagi mavjud pedagogik kasbga doir an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni o'zlashtirish natijasi sifatida talqin etiladi. Kasbiy identifikatsiya bilim, ehtiyoj, motivatsiya va faollik shakllanish dinamikasida shaxsning o'zini o'zi kelajakdagi faoliyat subyekti sifatida kasbiy o'zini o'zi anglash darajasi bilan belgilanadigan xususiyati sifatida talqin etilar ekan, ushbu moyillik, qiziqish va ustanovkalarining shakllanishi, o'z navbatida kasbiy yo'nalganlikni keltirib chiqarib, bizningcha, bu holat V.S.Muxina tomonidan taklif etilgan "O'zini o'zi anglash konsepsiyasi" [1; 1160 b] nuqtai nazaridan o'rganilishi mumkin.

Demak, ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar (shu jumladan, pedagogik kasbga yo'naltirishga oid qarashlar ham) inson ontogenezi davomida jamiyatdagi mavjud normativlar, ustanovkalar orqali o'zlashtirib boriladi hamda o'zini o'zi anglash jarayoni orqali amalga oshadi. Shu munosabat bilan, V.S.Muxina fikricha, "... shaxs shakllanishidagi kasbiy jihatlarni anglash o'zini o'zi anglashning asosiy tamoyillaridan birini tashkil etadi. Aynan shunday yondashuvdan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda shaxsning o'z xususiyatlarini kasbiy-shaxsiy differentsiyalash imkonini beruvchi metodlardan foydalandik. O'z kasbiy- shaxsiy xususiyatlarini differentsiyalash o'zini o'zi kasbiy anglash demakdir" [2; 1162 b].

Tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil etuvchi holatlardan yana biri - shaxs kasbiy identifikatsiyasi tabiatini tahlil etishga yordam beradigan "kasbiy rolli yondashuv" va (yoki) G.H.Mead [3; 290 b] va R.K.Merton [4; 873 b] tomonidan taklif etilgan "Shaxsning rollar nazariyasi"dir.

"Shaxsning rollar nazariyasi"da shaxs ijtimoiy funktsiyalari va subyekt tomonidan o'zlashtirilgan va qabul qilingan va (yoki) bajarishga majbur bo'lgan xatti-harakatlar modellari - sotsium tomonidan belgilanadigan rollar orqali tavsiflanadi hamda shaxsning jamiyatdagi yoki ijtimoiy guruhdagi mavqeni belgilab berishi bosh g'oya sifatida talqin etiladi.

Fanda faoliyatning (shu jumladan pedagogik) o'ziga tegishli qismini (lavozim majburiyatlarini) bajarishda pedagog ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plamiga kasbiy rol, deb ataladi. Inson qaysi rollar uning qiziqishlari va temperamentiga yaqinroq ekanligini qanchalik yaxshi tushunsa, ishlash shunchalik qulay bo'ladi, bu butun jamoaning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rstadi. Ushbu yondashuvga binoan, shaxs kasbiy kamolotga erishishi davomida "mutaxassis/professional" va "pedagog/ustoz"ga xos rollarni o'zlashtirib boradi va bu rollarning mohiyatini anglaydi. Tadqiqotni tashkil etishda va natijalarni izohlashda kasbiy rollar yondashuviga murojaat etish, nazarimizda, kasbiy identifikatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi etnopsixologik omillarni tushunishga va kasbiy ustanovkalarining shakllanish dinamikasini yanada chuqurroq tahlil etishga imkon beradi.

Darhaqiqat, o'zbek (shu jumladan, qoraqalpoq) milliy muhitidagi ko'pchilik shaxslararo munosabatlar o'zining aniq tavsifiga ega. Masalan, qanday vaziyatda qaysi iboralarni qo'llash, kattalar va kichiklar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum me'yorlarga rioya etish, pedagog va (yoki) ustoz toifasidagi kasb vakillariga xos bo'lgan xulq shakllari doirasida harakat qilish va shu kabi yana bir qator holatlar, shular jumlasidandir. Munosabatlardagi aynan shunday an'anaviylik va milliy stereotiplarga murojaat etish, pedagogik kasbga xos psixologik hodisalarni talqin etishda rollar nazariyasi asosida fikr yuritishni talab qiladi. Bundan tashqari, rollar differentsiyasi doirasida mulohaza yuritish va ularni tegishli ravishda farqlash, shaxsning o'z kasbiy mansubligini anglashni bildiradi. Bu holat esa, yuqorida ta'kidlab o'tilgan kasbiy identifikatsiya o'zini o'zi anglashning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi haqidagi ta'rifga mos keladi.

Dissertatsion tadqiqotimizning yana bir metodologik asosi - bu ijtimoiy hodisalarni talqin etishga xizmat qiladigan L.S.Vigotskiy [5; 32b], A.R.Luriya [6; 184 b] va A.N.Leontevlar [7; 429 b] tomonidan taklif etilgan "Madaniy-tarixiy yondashuv" konsepsiyasi sanalib, unga ko'ra, insonga xos barcha xislatlar jamiyatdagi u yoki bu munosabat va hodisalarning individ tomonidan faol tarzda o'zlashtirilishi, deb e'tirof etiladi. Lekin, individ insoniyat tomonidan yaratilgan tajribani, madaniyat yutuqlarini shunchaki qabul qilmay, balki o'z zahirasi va hatto tug'ma xususiyatlari bilan chamalagan holda o'zlashtiradi. Bunday o'zlashtirish insondan ko'r-ko'rona taqlid emas, balki ichki faollikni talab etadi. Jamiyatdagi xulq namunalari va shaxs ichki imkoniyatlarining o'zaro mutanosibligi hamda buning asosidagi uyg'unlashuv jarayoni, differentsiyaga asoslangan turli kasbiy rollarni kasbiy shakllangan pedagogik faoliyat vakilida mujassamlashishga imkon yaratadi.

O'quvchi(yosh)larning ta'lim muhiti sharoitida kasbiy identifikatsiyalashuvi hodisasi tabiatini tushuntirishda quyidagi ikki holatga asoslanamiz:

- 1) ta'limiy munosabatlarga kirish orqali subyekt kasbiy yo'nalganligiga xos rollar, ustanovkalar va me'yorlarni o'zlashtirib boradi;
- 2) ushbu ustanovka va o'zlashtirilayotgan rollar asosida kamolga yetayotgan o'quvchi(yosh)da jamiyatdagi pedagogik kasbiy faoliyatga xos qadriyatlar shakllanadi.

Shu jihatdan ham tadqiqot natijalarini tahlillashda aynan shunday yondashuvga asoslanishga harakat qildik.

Ma'lumki, katta guruhlarga oid ilmiy xulosalarni ishlab chiqish tadqiqotchidan matematik statistika uslublaridan foydalanishi zaruratini ham qo'yadi. Shu munosabat bilan, pedagogik kasbga yo'naltirish mavzusini tadqiq qilishda statistik ma'lumotlarga murojaat etish, natijalar tahlilida matematik qayta ishlash metodlaridan o'rinli foydalanish juda muhim ahamiyatga ega sanaladi. Aynan shunday yondashuv asosida katta jamoalarga (ya'ni pedagoglarga) xos jihatlarni, alohida kichik guruh vakillari (pedagogik kasbni tanlashni rejalashtirgan o'quvchilar) misoliga tatbiq etish imkoniyati tug'iladi.



Psixologiya fanida statistik ma'lumotlarni qo'llash, kasbga yo'naltirishlar o'rtasidagi farqlarga oid ma'lumotlarni talqin etishda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor berish taklif qilinadi:

1. Pedagogik kasbga moyilligi va qiziqishi bor o'quvchi(yosh)lar o'rtasidagi u yoki bu respondentda kasbiy sifatlardan birining ustunligi kamida 10 foizni tashkil etsa, kasbiy ustanovka borasidagi farqni inobatga olish mumkin;
2. Biror respondentni pedagogik kasbiy sohaga yo'nalganligi baholar ekanmiz, u kamida 20 foiz natijani qo'lga kiritgandagina, kasbiy identifikatsiyalashishi kutilishiga e'tibor qaratilishi lozim (bu degani, tekshiriluvchilar va ekspertlarning har beshtadan biri bir xil fikrda ekanligidan dalolat beradi).

Miqdoriy farqlarga asoslanadigan ana shunday ko'rsatkichlar, o'z navbatida, validlik va haqqoniylik nuqtai nazardan tekshirilgan hamda qayta ishlangan metodlar orqali qo'lga kiritilgan natijalarga tegishli, deya qabul qilsa bo'ladi. Shu bois, tadqiqot ishimiz davomida imkon qadar sinalgan va amaliyotda qo'llanib kelinayotgan metodikalar yordamida tekshiriluvchilarga murojaat etdik.

Pedagogik kasbga yo'naltirish muammolariga oid tadqiqot natijalarini tahlil qilishda, bir tomondan, fiziologik omillarga asoslanish zarurati bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-psixologik hodisalar talqini iloji boricha psixofiziologik ta'sirdan xolis bo'lishi shart.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, madaniy-tarixiy konsepsiya, faoliyat nazariyasi va kasbiy rollar nazariyasi tashkil etdi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- nazariy va qiyosiy tahlil;
- psixologik kuzatish;
- anketa va intervyu;
- psixodiagnostik metodikalar;
- kontent-tahlil;
- matematik-statistik qayta ishlash metodlari.

Ishimiz mavzusiga doir tadqiqotlarni tashkil etishda iloji boricha eksperimental psixologiya va ijtimoiy fikrni tadqiq qilishda keng qo'llanilayotgan amal tavsiyalarga o'z e'tiborimizni qaratdik. Ijtimoiy psixologiya sohasida ilmiy izlanishlarni tashkil qilishga qaratilgan manbalarda qayd etilishicha, haddan ziyod katta hajmdagi tadqiqot metodikalari tekshiriluvchilarda sabrsizlik holatini yuzaga keltiradi va so'rovnomada oxiridagi javoblarga yuzaki javob berish orqali butun tadqiqot natijalari obyektivligiga salbiy ta'sir etadi. Shu bois, tadqiqot olib borish davomida respondentni kuzatish, uning reaksiyalariga e'tibor berish kutilajak ko'ngilsizliklar haqida xulosa chiqarishga asos bo'lishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish mavzusini o'rganish uzoq vaqt mobaynida va bir qator fanlar kontekstida amalga oshuvchi tadqiqotlar sirasiga kiritilgan bo'lsa-da, muammoni tadqiq etishda turlicha usullardan foydalanish amaliyotini ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan, bir tadqiqot davomida qo'llangan turli metodlar orqali olingan natijalarni kontent tahlil (sifatiy va miqdoriy jihatdan) etish, tarqoq ma'lumotlarni bir mazmun doirasida tartibga solish zarurati tug'iladi. Shu jihatdan ham, tadqiqot ishimiz davomida "Kontent tahlil" metodi olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uslubi sifatida tanlandi.

Kasbiy yo'nalganlik o'spirinlik va yoshlik davrlarida senzitiv faol bo'lsa-da, kasbiy identifikatsiya, kasbiy rollar differentsiatsiyasi kontekstida shaxs xatti-harakati kasbiy shakllanganlik darajasini tushuntiruvchi jarayon sanaladi. Shu sababli, tadqiqotni tashkil etishda umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalaridan iborat turli yoshdagi respondentlarni qamrab olishga va ularning o'zini o'zi anglashi va kasbiy rollar (asosan pedagogik kasbi)ni klassifikatsiyalashi sohasidagi ijtimoiy-psixologik tasavvurlari o'rganildi. Bu borada o'quvchi(yosh)larning pedagogik kasbga oid ijtimoiy-psixologik tasavvurlari haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Jamiyat miqyosida amal qiluvchi pedagogik kasbga oid tavofutlanishlar shaxs ijtimoiylashuvi davomida orttirilgan bo'lib, asl mohiyati jihatidan uning tasavvurlari doirasidan o'rin oladi. Shu munosabat bilan ijtimoiy psixologik tasavvurlar, bu tasavvurlarda kasb tanlashga va (yoki) kasbiy yo'nalganlik doir farqlarning ko'lamini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Aynan shuning uchun, tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlarning aksariyat qismida respondentlarning kasbiy yo'nalganlik mavzusiga oid ijtimoiy-psixologik tasavvurlarini tadqiq etish alohida vazifa qilib qo'yildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari yoshlarning pedagogik kasbga yo'nalganligida motivatsion, ijtimoiy va etnopsixologik omillar yetakchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Tahlillar davomida pedagogik kasbga yuqori qiziqish bildirgan respondentlarda quyidagi sifatlar ustunligi aniqlandi:

- empatik munosabat;
- kommunikativ kompetentlik;
- ijtimoiy mas'uliyat;
- refleksivlik;
- altruistik motivatsiya;
- bolalarga nisbatan ijobiy emotsional munosabat.

Ishimining nazariy qismida bayon qilinganidek, kasbiy identifikatsiya o'quvchi(yosh)larda o'spirinlik yoshiga kelib shakllanadi. Avval ta'kidlanganidek, birlamchi kasbiy identifikatsiya jarayonini tushuntiruvchi turfa xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan biri kasbiy identifikatsiya jarayonida aynan kasbiy rollarni yetakchi o'ringa olib chiqadi. Shu bois ham, tadqiqot ishimizdagi asosiy izlanishlardan biri o'zbek etnik muhitidagi ta'lim muassasasida kamol topayotgan o'quvchi(yosh)larda kasbiy identifikatsiya jarayonida kasbiy rollar omilini o'rganish alohida maqsad qilib qo'yildi.

Tadqiqot ishini tashkil etishda o'xshash metodlar yordamida umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari, ularda ta'hsil olayotgan o'quvchi/talabalar o'rganildi. Shunday yondashuv orqali ikki tipdagi ta'lim muassasasiga xos xususiyatlar va ularda ta'lim olayotgan subyekt tabiatiga xos pedagogik kasbiy identifikatsiya jarayoni tadqiq etildi.

1-jadval: Umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha respondentlar tanlovi (absolyut qiymatda)

№	Tadqiqot bazalari	Respondentlar			
		Sinflar		Jinslar	
		10-sinf	11-sinf	O'g'il bola	Qiz bola
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	114	102	83 (41+42)	133 (73+60)
2.	Navoiy viloyati	28	48	41 (15+26)	35 (13+22)
3.	Toshkent shahri	28	143	62 (10+52)	109 (18+91)
	Jami	n=170	n=293	n=186	n=277
	n=463		n=463		

Tadqiqotning empirik qismini tashkil etishdagi metodologik talablardan kelib chiqqan holda, empirik tadqiqot obyekti ustida to'xtalib o'tamiz.

Biz empirik tadqiqotimizning obyekti sifatida:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 12-, 31-, 37-son; Qo'ng'iro't tumanidagi 38-, 43-son; Amudaryo tumanidagi 40-son umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 10-11-sinf o'quvchilari - 216 nafar;
- Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 8-, 11-son umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 10-11-sinf o'quvchilari - 76 nafar;
- Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 249-, 266-son umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 10-11-sinf o'quvchilari - 171 nafar;

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining 1-kurs talabalari

- 206 nafar;
- Navoiy davlat pedagogika institutining 1-kurs talabalari - 194 nafar;
- Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 1-kurs talabalari - 183 nafar maktab o'quvchilari va talaba yoshlar obyekt sifatida tanlandi.



- Fokus-guruhlar tarkibiga kirgan o'quvchilarning oilalari (ota-onalari) - 20 nafar (ulardan, 8 nafari ota, 12 nafari ona);
- Fokus-guruhlar tarkibiga kirgan ekspert-psixologlar - 15 nafar (ulardan, 7 nafari erkak, 8 nafari ayol), jami 1046 nafar o'quvchi-talabalar (ulardan 313 nafari o'g'il bolalar, 733 nafari qiz bolalar) va 35 nafar ota/ona-psixologlar (ulardan 15 nafari erkaklar, 20 nafari ayollar) tanlab olindi.

2-jadval: Pedagogik oliy o'quv yurtlar bo'yicha respondentlar tanlovi (absolyut qiymatda)

№	Tadqiqot bazalari	Respondentlar				
		OTM lar			Jinslar	
		Nukus DPI	Navoiy DPI	Toshkent DPU	O'g'il bola	Qiz bola
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	206			47	159
2.	Navoiy viloyati		194		48	146
3.	Toshkent shahri			183	32	151
Jami		n=583			n=127	n=456

Empirik tadqiqot predmeti sifatida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot to'plandi:

1. Umumiy o'rta maktab o'quvchilarining o'zini o'zi kelajak kasbiy yo'nalganligini va kasbiy rollar differentsiyasi haqidagi ijtimoiy-psixologik tasavvurlari;
2. Pedagogik kasbni tanlagan, o'zbek va qoraqalpoq millatlariga mansub talabalarning kasbiy tasavvurlari va kasbiy moslashuvi bo'yicha mavjud kompetensiyalari;
3. Farzandlarini pedagogik kasbga yo'naltirgan ota-onalar ustanovkalari;
4. O'quvchi(yosh)larni kasbiy moyillik va qiziqishlari sohasiga ko'ra pedagogik kasbga yo'naltirishga bo'lgan amaliyotchi psixolog kasbiy rollar differentsiyasi sohasidagi o'zgarishtirishlar va kasbiy rollar resotsializatsiyasi.

O'rganilishi lozim bo'lgan muammolar, tadqiqot predmeti va tanlab olingan obyekt, empirik tadqiqot oldida turgan quyidagi vazifalarni aniqlash imkonini beradi:

1. Ta'lim muassasasidagi o'zaro munosabatlarning (shu jumladan, ustoz- shogird munosabatlarini ham) o'quvchi(yosh)larni kasbiy identifikatsiyasiga ta'sirini o'rganish;
2. Birlamchi kasbiy identifikatsiyasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari misolida tadqiq etish va pedagogik kasb sohasiga muvofiqligini tekshirish;
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini kasbiy moyilligi va qiziqishlari xaritasiga ko'ra, ulardagi kasbiy tasavvurlarni aniqlash va shu tasavvurlar asosida o'quvchilarni pedagogik kasbga yo'naltirishning ijtimoiy- psixologik mexanizmlarini aniqlashtirish;
4. O'quvchi va yoshlardagi kasbiy ustanovkalarni aniqlash va bu ustanovkalarning ta'lim muhiti omili hamda ta'lim shakli bilan bog'liq tarzda tadqiq etish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish imkonini beruvchi empirik tadqiqotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati va Toshkent shahridagi ko'p bo'g'inli va nuklear oilalar (fokus-guruhga kiritilgan o'quvchilar voyaga yetayotgan 20 ta oila), umumiy o'rta ta'lim muassasalari (10 ta maktab), oliy o'quv yurtlari (3 ta oliygoh) da o'tkazildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlillar va empirik tadqiqot natijalari yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish muammosining nafaqat pedagogik, balki chuqur ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. **Pedagogik yo'naltirishning tizimli tabiati:** Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish jarayoni shunchaki kasb tanlash bo'yicha axborot berish emas, balki shaxsning motivatsion, kognitiv va emotsional sohalarini qamrab oluvchi ko'p komponentli tizim ekanligi aniqlandi. Bu jarayonda shaxsning ichki ehtiyojlari jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi bilan uzviy integratsiyalashadi.

- Kasbiy identifikatsiyaning markaziy roli:** Tadqiqotda aniqlanishicha, kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi o'spirinlik davrida "o'zini o'zi anglash" mexanizmi bilan bevosita bog'liq. Yoshlarning o'z shaxsiy xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, xarakter) pedagogik faoliyat talablari bilan qiyosiy tahlil qilishi (differentsiatsiyalashi) ularda barqaror kasbiy tanlovning shakllanishiga zamin yaratadi.
- Kasbiy rollarning ijtimoiy-psixologik determinantligi:** G.H.Mead va R.K.Merton nazariyalari kontekstida o'rganilganda, o'quvchi-yoshlarda pedagogik kasbga oid ijobiy ijtimoiy-psixologik tasavvurlarning mavjudligi ularning kasbiy rollarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ya'ni, o'quvchi pedagog obrazini qanchalik ijobiy va professional darajada tasavvur qilsa, unda ushbu rolga moslashish (resotsializatsiya) jarayoni shunchalik samarali kechadi.
- Etnopsixologik omillarning ustuvorligi:** O'zbek va qoraqalpoq milliy muhitida pedagogik kasbga yo'naltirishda "ustoz-shogird" an'analari, milliy qadriyatlar va oilaviy muhitning ta'siri yuqoriligi aniqlandi. Etnopsixologik determinantlar yoshlarning pedagogik faoliyatga nisbatan altruistik motivatsiyasini kuchaytiruvchi va kasbning ijtimoiy nufuzini belgilovchi tayanch omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar va takliflar:

- Psixologik monitoring tizimi:** Umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida pedagogik kasbga moyillikni aniqlashning uzluksiz psixometrik monitoringini joriy etish. Bu tizim orqali kasbiy tanlovi aniq bo'lmagan yoshlarni erta diagnostika qilish va ularga maqsadli yo'nalish berish mumkin.
- Kasbiy rehabilitatsiya va treninglar:** Pedagogik oliy ta'lim muassasalari 1-kurs talabalari uchun kasbiy moslashuvni osonlashtiruvchi, ularda "pedagogik men-konsepsiyasi"ni rivojlantiruvchi maxsus psixokorreksion dasturlar va ijtimoiy-psixologik treninglar blokini o'quv rejasiga kiritish.
- Media-strategiyani rivojlantirish:** Zamonaviy axborot makonida pedagog kasbining nufuzini oshirish, o'qituvchining ijobiy va zamonaviy imidjini shakllantirishga qaratilgan interaktiv media-loyihalar (videoroliklar, veb-platformalar, muvaffaqiyatli pedagoglar bilan uchrashuvlar) ko'lamini kengaytirish.
- Oilaviy hamkorlik:** Kasbga yo'naltirish jarayonida ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ularda pedagogik kasbning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va farzandining psixotipiga mosligi haqida to'g'ri ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Кудрявцев Т.В. Психологический анализ динамики профессионального самоопределения личности / Т.В. Кудрявцев, В.Ю. Шегурова // Вопросы психологии. - 1983. - №2 март-апрель 1983. - С. 51-60.
- Крушельницкая О.И., Третьякова А.Н. Адаптационный социально-психологический тренинг и его роль в социализации студентов первокурсников // Социальная психология в образовательном пространстве, Международная научно-практическая конференция. - Москва: 2013. - С. 221-222.
- Лысенко Е.М. Возрастная психология. - Москва: Владос-Пресс, 2006. - 176 с.
- Тезисы докладов республиканского симпозиума "Психологические аспекты профориентационной работы среди молодежи", 16-17 сент. 1981 г. / Под ред. М.Г. Давлетшина - Ташкент: ТГПИ, 1981. - 218 с.
- Колпакова Л.М. Психологические механизмы формирования межличностных отношений в диаде "учитель-ученик" в условиях педагогической деятельности (На прим. старших школьников): Дис. ...канд. психол. наук: 19.00.05. - Казань: АПН Казанс. НИИ ССО, 1992. - 160 с.
- Бехтерев В.М. Внушение и воспитание // Акад. В.М. Бехтерев. - Петроград: Время, 1923. - 40 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.